

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|------|
| Sh.T.Axmadjonova | |
| Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics | 983 |
| Sh.T.Axmadjonova | |
| A study on the characteristics and types of public speaking in english | 986 |
| Sh.Sh.Dadabayeva | |
| Expression of comparative relation in language | 990 |
| N.X.Alieva | |
| Evolution of new phraseological units in the era of digitization | 997 |
| I.M.Jo'rayev | |
| Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi | 1001 |
| O.Q.Xasanova | |
| Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati | 1005 |
| И.Ф.Порубай | |
| Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка | 1010 |
| D.Sh.Rasulova, N.R.Gafurova | |
| Gender study of forms of references in english languages | 1019 |
| N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova | |
| Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages | 1023 |
| I.M.Qo'chqarov | |
| Methods of teaching english | 1028 |
| N.Z.Axmadjonov | |
| Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida) | 1031 |
| Z.M.Xalilova | |
| Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi | 1036 |
| G.R.Tashmatova | |
| Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений | 1040 |
| Sh.A.Nuraliyeva | |
| Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'mi | 1044 |
| Z.M.Abdullayev | |
| Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida) | 1047 |
| N.Z.Axmadjonov | |
| Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi | 1050 |
| D.X.Madazizova | |
| Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari | 1055 |
| R.U.Axrorova | |
| «Yosh» tushunchasining lingvistik talqini | 1059 |
| R.U.Axrorova, L.B.Ikromova | |
| Adabiy asarlarda maqollarning o'mi | 1064 |
| A.Mamatova | |
| Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi | 1069 |
| A.Mamatova | |
| Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi | 1074 |
| Sh.O.Abdiloyev | |
| Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida | 1078 |
| N.Q.Adamboeva | |
| Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi | 1083 |
| T.Z.Mingboyeva | |
| The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels | 1087 |
| D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva | |
| Omma oldida nutq qilishdag'i qo'rquv sabablari va yechimlari | 1091 |
| R.A.Ortiqov | |
| Роль и значение компьютерных игр в образовании | 1095 |



УО'К: 81'37:316.356.2

TILSHUNOSLIKDA "OILA/FAMILY" KONSEPTINING O'RGANILISHI.

ИЗУЧЕНИЕ КОНЦЕПТА «СЕМЬЯ/FAMILY» В ЛИНГВИСТИКЕ.

STUDYING THE CONCEPT OF "OILA/FAMILY" IN LINGUISTICS.

Xalilova Zarnigor Muhammadjon qizi 

Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, chet tillari kafedrasи ingliz tili o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqola "oila/family" konseptining tilshunoslikda o'rganilishiga bag'ishlangan bo'lib, unda lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa hisoblanmish konseptining jahon hamda o'zbek tilshunoslari o'rganilishi, o'zbek va ingliz tillaridagi til birliklari orgali oila konseptining ifodalanishi qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada quyidagi masalalar yoritilgan: Oila tushunchasining til va madaniyatdagi o'mi, o'zbek va ingliz tillarida oila konseptini ifodalovchi til birliklari (morphemalar, leksemalar, sintaktik, frazeologik va diskursiv birliklar) orqali "oila" tushunchasining voqealanishi qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, oila tushunchasining madaniy o'mi, ushbu konseptining o'zbek va ingliz tillaridagi madaniy xususiyatlari, an'analar, qadriyatlar va boshqa madaniy komponentlari yoritilgan. Ikki tilning madaniyatida oila tushunchasining tutgan o'mni ya ifodalanish xususiyatlari tahlil qilingan. Umumiyl xulosada, "oila" konseptining o'zbek va ingliz tillaridagi til birliklari orqali ifodalanishi hamda ushbu tushunchaning chog'ishtirilayotgan tillar madaniyatidagi o'mi va xususiyatlari qiyosiy tahlil etilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению концепта "семья/family" в лингвистике, в которой проведен сравнительный анализ изучения мировыми и узбекскими лингвистами концепта как лингвокогнитивного и лингвокультурного феномена, выражения концепта семьи через языковые единицы в узбекском и английском языках. В статье освещены следующие вопросы: роль концепта "семья" в языке и культуре, сравнительный анализ реализации концепта "семья" через языковые единицы (морфемы, лексемы, синтаксические, фразеологические и дискурсивные единицы), выражающие концепцию семьи в узбекском и английском языках. Также освещается культурное место понятия семьи, культурные особенности этого понятия на узбекском и английском языках, традиции, ценности и другие культурные компоненты. Анализируются роль и особенности выражения понятия семьи в культуре двух языков. В общем заключении проведен сравнительный анализ выражения концепта "семья" через языковые единицы в узбекском и английском языках, а также роли и особенностей этого концепта в культуре двух языков.

Abstract

This article is devoted to the study of the concept of "family" in linguistics, in which a comparative analysis of the study of the concept by world and Uzbek linguists as a linguocognitive and linguocultural phenomenon, the expression of the concept of family through language units in the Uzbek and English languages is carried out. The article covers the following issues: the role of the concept of "family" in language and culture, a comparative analysis of the implementation of the concept of "family" through language units (morphemes, lexemes, syntactic, phraseological and discursive units) expressing the concept of the family in the Uzbek and English languages. It also highlights the importance of the concept of family in culture, the cultural peculiarities of this concept in Uzbek and English, traditions, values and other cultural components. The role and peculiarities of the expression of the concept of family in the culture of two languages are analyzed. In conclusion, a comparative analysis of the expression of the concept of "family" through linguistic units in the Uzbek and English languages, as well as the role and features of this concept in the culture of following languages, is carried out.

Kalit so'zlar: konsept, tushuncha, til, madaniyat, oila, til birliklari.

Ключевые слова: концепт, понятие, язык, культура, семья, единицы языка.

Key words: The concept, the notion, the language, the culture, the family, language units.

KIRISH

Til vosisasida insonlar o'z dunyoqarashi, tajribasi, an'analarini va qadriyatlarini namoyon qila oladi. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Ular bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va bir-birining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda bu tushunchalarning o'zaro bog'liqligi ko'plab tilshunoslar tomonidan qiziqish uyg'otmoqda. V.Gumbold, F.Boas va

TILSHUNOSLIK

B.Uorf va shu kabi tilshunos olimlar o'z tadqiqotlari til, tushuncha va madaniyat masalalariga alohida to'xtalib o'tishgan. Ong va bilish, tafakkur va mentalitet bilan bog'liq tadqiqotlar natijalari ham muhim ahamiyat kasb etishi bugungi kunning ikki muhim tendensiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi: bular globallashuvga intilish, hamda o'ziga xoslik va milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishga intilishdir. Shu munosabat bilan, kontseptni mental tuzilma sifatida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda ham boshqa sohalar kabi kontseptning aniq bir ta'rifi mavjud emas. Sababi, har bir tadqiqotchi o'z ilmiy yo'nalishga qarab talqin qiladi. Konsept atamasi kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya kabi tilshunoslik yo'nalishlari uchun muhim kategoriya hisoblansa-da, u ushbu fanlarda turlicha izohlanadi. XX asrning 80-yillarigacha tilshunoslikda konsept atamasi tushuncha so'ziga ma'nodosh so'z tarzida ishlataligan bo'lsa, bugungi kunda esa "konsept" tushunchaga nisbatan kengayroq qamrovni o'z ichiga olganini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

B.L.Uorfninig ta'kidlashicha "Biz borliqni ona tilimiz ko'rsatgan yo'nalishda qabul qilamiz. Biz ro'yodagi u yoki bu kategoriya yoki tamoyilni uning yaqqol ifoda etilayotgani uchun ajratib qabul qilmaymiz, aksincha dunyo ko'z oldimizda bizning ongimiz shakllantirgan holatda paydo bo'ladi. Demak, holat bizning ongimizda saqlanadigan til tizimi orqali namoyon bo'ladi. Biz dunyoni tushunchalarda shakllantiramiz va mohiyatini boshqacha emas, aynanshu tariqa belgilaymiz" (Whorf, 2011).⁶⁰ Yuqorida keltirilgan fikrdan shuni anglashimiz mumkinki, biz borliqni ona tilimiz va dunyoqarashimizdan kelib chiqib tasavvur qilamiz.

Konsept tafakkur birligi hisoblanib, u o'zida tushuncha, obraz va lisoniy ma'noni umumlashtiradi. Konsept shakllanishi avvalida individual obraz yaratib, so'ngida esa lisoniy birlikning paydo bo'ladi. Mashhur faylasuf va psixolog Jerry vogelikning ongda anglanishi va bu anglashning tafakkurda qayta ishlanish jarayonini tafakkur lisoniga qiyoslaydi. Sababi, "Har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma'lum ko'rinishdagi strukturaga ega bo'ladi hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir" (Jerry, 1974).⁶¹

Konsept tushunchasiga E.S.Kubryakova shunday ta'rif beradi: "Konsept" termini tafakkurni anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash, kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik lingvokulturologiya fanlari uchun soyabon vazifasini bajaradi. Bunga qo'shimcha tarzda, "konsept" bu – hayotimizda obyektiv va noobyektiv borliqdan olingan bilimlar va ko'nikmalar maydonining tildagi ifodasidir.⁶² "Oila" konsepti esa muqaddas dargoh, buniyod etilishi baxtga, barbod bo'lishi esa baxtsizlikka tenglashtiriladigan ilohiy rishta, doimo sizni qo'llab-quvvatlovchi kishilar jamlangan maydon hisoblanadi.

Oila umuminsoniy, barcha jamiyatga xos "universal" hisoblanib, ijtimoiy hayotning yagona mumkin bo'lgan shakli, garchi niroyatda o'zgaruvchan bo'lsa ham, milliy xususiyatni o'zida jamlagan tushunchadir. "Oila jamiyatning ajralmas qismi, xalqlar hayotining ijtimoiy, huquqiy, demografik va madaniy jihatlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Turli ijtimoiy sinflar va qatlamlarning ko'plab oilalari butun jamiyatni tashkil qiladi va ijtimoiy munosabatlar tizimining murakkab palitrasini aks ettiradi" (Lubart 2005: 9)⁶³

Har bir madaniyat o'ziga xos bo'lgan oila modelini shakllantirish bilan tafsiflanadi, ushbu tuzilmasida oila a'zolari, munosabatlar tuzilmasi, shuningdek, oilaviy munosabatlar va rollarning rivojlanishi kabi elementlarni ajratish mumkin. Oila a'zolarining mavqeい va rollari o'ziga xos munosabatlar tuzilmasi bilan belgilanadi, oilaviy munosabatlarning o'zgarishiga ijtimoiy-siyosiy va geosiyosiy omillar ta'sir qiladi.

Oila madaniyatning ijtimoiy instituti sifatida rivojlanar ekan bir qator bosqichlardan o'tadi, ularning ketma-ketligi oilanining hayotiy aylanish davrini tashkil etadi⁶⁴. Insoniyat tarixi davomida oila

⁶⁰ Уорф, Б. Отношение норм поведения и мышления к языку / Б. Уолф // Зарубежная лингвистика И.М., 1999. С. 59-91

⁶¹ The Psychology of Language, with T. Bever and M. Garrett, McGraw Hill, 1974, ISBN 0-394-30663-5.

⁶² Nasridinov M.V. "Ingliz va o'zbek tillarida "maqsad" konsepti doirasidagi sinomimlardan to'g'ri foydalanish". Universitetlararo talabalar ilmiyamaliy anjumanani materiallari. 2020-yil 7-may, Toshkent.

⁶³ Любаерт М.К. Семья во французском обществе: XVIII - начало XX века

⁶⁴ Кравченко, А.И. Культурология: учебное пособие для вузов / А.И. Кравченко. - М.: Академический проект, 2010. - 380 с.

jamiyatning eng barqaror ijtimoiy instituti bo'lib qolgan va uning a'zolari uchun muhim hayotiy qadriyat bo'lib kelgan. So'nggi asrda ijtimoiy aloqalarning ko'p qirrali bo'lishi tufayli, oiladagi munosabatlar va jamiyatning oilaga bo'lgan munosabati sezilarli darajada o'zgardi.

Tarixiy jarayonlar davomida oila uzoq rivojlanish davrini bosib o'tdi. Qadimiy madaniyatlarda oila mustaqil holda qadr-qiyomatga ega bo'lmay, oilaviy qadriyatlar ko'pincha qarindoshlik qadriyatları va aloqalariga bo'ysungan. Qarindoshlik aloqalari dastlabki xalqlarning obro'-e'tibori, jamiyatdagi o'rni, imtiyozlari hamda majburiyatlarini va hattoki hayot tarzini belgilagan.

Antik davrda esa madaniy hayotning tashkil etilishi qarindoshlik munosabatlariga emas, balki xo'jalik munosabatlari va yangi shakllanayotgan xususiy mulkka asoslangan. O'rta asrlar oilaviy munosabatlarida dinning ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Umuman olganda ushbu davrda oilalar diniy-axloqiy qonunlariga asoslangan.

XIX asrda oilaviy munosabatlarning diniy-axloqiy qadriyatları ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlar bilan almashtirildi, hamda ushbu jarayon shaxs erkinligi va individuallashuvining kuchayishiga olib keldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oila konsepti - bu oila tushunchasi atrofida shakllangan va inson ongi hamda madaniyatida o'z aksini topgan kompleks fikrlash tarzini ifodalaydi. Oila barcha madaniyatlarda mavjud bo'lib, umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi Bizga ma'lumki, ko'plab xalqlar milliy madaniyatida oiladagi qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an'analar, oila a'zolari munosabatlari masalasida o'zarotafovutlar bor. Shuningdek, oila konsepti tilning leksik-semantik, frazeologik, paremik va diskursiv darajalarida ifoda topadi hamda aks etadi. Bu esa madaniyatlararo muloqot kontekstida oila tushunchasining o'rganilishini talab qiladi.

O'zbek va Ingliz tillarida "oila/family" konseptini voqealantiruvchi til birliklarni quyidagi guruhlarga ajratgan holda tahlil qilishimiz mumkin:

1. **Morfemalar** (oila: oilaviy, oilador, oilachi, oilalashmoq, oilali, oilasiz, oilalik family:familyish, familial, familialize, disfamily, nonfamily, family-less...).

2. **Leksemalar** (ota, ona, opa, singil aka, uka, amma, xola, amaki, tog'a, buva, buvi, nevara, jivan, qaynona, qaynota, qarindosh, va hkz;

Father, mother, sister, brother, aunt, uncle, niece, nephew, cousin, wife, husband, father-in-law, mother-in-law, wife, husband....).

3. **Sintaktik birliklar** 1) so'z birikmasi (oilaviy munosabatlar, oilaviy muhit, oilaviy shifokor, oilaviy maslahat, oilaviy sayohat, oila daraxti, oilaviy qadriyatlar, oila to'yi oila a'zolari, oila rishtalari, mustahkam oila, inoq oila, oila muammolari, oilaning mashinasi, oilali yigit, oilaviy sir, oilada farzand tarbiyasi;

Family values, family tree, family reunion, family member,family ties, nuclear family, extended family, family secret, family car, family budget, to support family, to raise children).

2) Gap. (Oila yirik uyda yashaydi. Ota-onam ajrashib ketishmoqda. Nabiramga yordamlashaman. Bolalar hovlida o'ynashyapti. Shug'ullanishi ko'p bo'lsa-da, oila har doim birbiriga vaqt ajratadi. Amakimlar kelganda, oila yig'iladi.Akam oila qurbanidan buyon, o'zining oilasi bor. Ota-onam ko'p ishlashgani uchun, opa-singillarga men qarayman.

The family lives in a big house. My parents are getting divorced. I help my grandparents with chores. The children are playing in the yard. Although they have a busy schedule, the family always makes time for each other. When my aunt comes to visit, we have a family gathering. Since my brother got married, he has his own family now. Because my parents work long hours, I take care of my younger siblings.).

4. **Frazeologik yoki paremiologik birliklar, (frazeologizmlar)** a) frazeologik birliklar. Masalan: uyning ustuni (oila uchun eng muhim a'zo), oila boshi (oila rahbari), tug'ish-o'sish (oila qurib ko'payish), uyni to'dirmoq (oilani katta qilmoq),

Blood is thicker than water (oila a'zolari birlashganda boshqalardan ustun turadi),

happy family (baxtli oila), black sheep of the family (oilada muammoli a'zo),

the family way (oilaning o'ziga xos yo'lli),family man (oilani asosiy qadriylat deb hisoblagan kishi), To be born with a silver spoon in one's mouth(sharoiti yaxshi bo'lgan oilada dunyoga kelmoq)

b) paremiologik birliklar (maqol va matallar):

TILSHUNOSLIK

Uyning tuprog'i odam uchun oltin. (Oila, uy-joy inson uchun eng qimmatli), Odam odam bilan yarashar, oila oila bilan. (Oilalararo hamjihatlik muhim), Yaxshi ota, yaxshi ona - yaxshi bola. (Ota-onaning tarbiyasi bolani shakllantiradi), Odam odam bilan, uy uy bilan. (Oilalar bir-birini yaxshi ko'rishi kerak), Ro'g'or- g'or(ro'zg'ordagi kamchiliklarning hech tugamasligi), Uy siri- yopiqlik qozon(oiladagi sir, kamchiliklarni tashqariga chiqarmaslik)

East or west home is best(o'z uym, o'lan to'shagim). Charity begins at home. (Xayr-ehson eng avvalo oiladan boshlanadi), home is where the heart is. (Inson uchun eng aziz joy - uning uyidir), the family that prays together, stays together. (Birgalikda ibodatlar qiluvchi oilalar barqaror bo'ladi), like father – like son, like mother –like daughter (ota qanday bo'lsa o'g'il ham shunday bo'ladi,yoki onasiga qarab qizini ol).

5. Tekstemalar: Oila insoniyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biridir. U jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini, tarbiyasini va kundalik hayotini tashkil etuvchi muhitni yaratadi. Oila har bir insonning hayotida alohida o'rın tutadi, chunki u yerda insonning ilk qadamlarini qo'yishi, uning shaxsiyati shakllanishi va asosiy qadriyatlarni o'rganishi sodir bo'ladi.

Families come in all shapes and sizes, but they share a common thread - the bond of love and support. Whether it's the family you're born into or the one you choose, the people who make up your family are there for you through thick and thin. They celebrate your successes, comfort you in times of sorrow, and encourage you to be the best version of yourself. A strong family unit provides a sense of belonging and a foundation of values to build your life upon. While family dynamics can be complex, the unconditional love and acceptance found in a healthy family is truly invaluable. Cherishing and nurturing those familial connections is one of life's greatest gifts.

XULOSA

Har bir konsept markazida qadrlilik yotadi va u til, madaniyat tadqiqiga xizmat qiladi. Insonning madaniy tajribasi qanchalik kam bo'lsa, uning tili, so'z boyligining "konseptosferasi" ham kam bo'ladi. Har bir millatning so'z boyligining konseptosferasi uning urf-odatlari, qadriyatlari, yasash tarzi, o'sha madaniyat sivilizatsiyasidan darak beradi. O'zbek tilidagi oila konsepti ham bizning madaniyatimiz, qadimdan shakllangan urf-odatlarimiz, dinimizning asosiy jihatlarini aks ettirgan holda ingliz tilidagi family konseptidan farq qiladi. "Oila/family" konsepti o'zbek va ingliz xalqlari hayotida muhim ahamiyat kasb etib, til va madaniyat birligi sifatida milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Yuqoridaq o'zbek va ingliz tillarida berib o'tilgan qisqacha misollar bizga shuni ko'rsatadiki, biz oila konseptiga barcha til sathlarida duch kelishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirzaev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek halq maqollari, Toshkent: Sharq nashriyoti, 2013. – B. 512
- Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003.
- The Psychology of Language, with T. Bever and M. Garrett, McGraw Hill, 1974, ISBN 0-394-30663-5.
- Уорф, Б. Отношение норм поведения и мышления к языку / Б. Уорф // Зарубежная лингвистика I.М., 1999. С. 59-91
- Кубрякова Е.С Краткий словарь когнитивных терминов Е.С Кубрякова В.З Демьянков Ю.Г Панкрац Л.Т Лузина-Изд-во Моск.госу.ун-та,1996
- Кравченко, А.И. Культурология: учебное пособие для вузов / А. И. Кравченко. - М.: Академический проект, 2010. - 380 с.
- Любарт М.К. Семья во французском обществе: XVIII - начало XX века